

# QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-avgust*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. (75)221-44-28**

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- sentyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6657 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6637 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 14628,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,9 % ga o'sish ta'minlandi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 679,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 12022,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1925,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>14628,1</b>	<b>107,9</b>
Qarshi sh.	3701,6	109,0
Shahrisabz sh.	1171,8	107,6
G'uzor	616,4	110,2
Dehqonobod	475,8	106,6
Qamashi	1046,6	105,8
Qarshi	588,8	105,9
Koson	1235,3	107,5
Kitob	770,4	108,0
Mirishkor	519,8	106,5
Muborak	415,9	106,0
Nishon	577,0	108,1
Kasbi	488,5	106,3
Ko'kdala	503,4	110,0
Chiroqchi	1235,9	106,6
Shahrisabiz	540,3	112,9
Yakkabog'	740,8	106,9


2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (112,9 %), G'uzor (110,2 %), Ko'kdala (110,0 %) tumanlarida, chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-avgust)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ni tashkil qildi.

## 2023- yil va 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yil yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **107,9 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 25,3 % bilan 3701,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,8 % bilan 415,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


*Hajmi, mlrd. so'm*




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 12022,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,8 % ga oshdi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,2 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 106,0 % ga ko'paydi va 679,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)





## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirishkor va Nishon (99,2 %), Qamashi (99,0 %) Dehqonobod (98,9 %) Yakkabog' (98,8%) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani (16,1 %), Qarshi shahri (8,6 %), Ko'kdala (7,0 %), Koson (5,9 %) va G'uzor (4,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**4,6 %**

**95,4 %**



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-avgust oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4089,0 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 105,5 %) tashkil etdi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-avgust), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>781,9</b>	<b>105,3</b>
Qarshi sh.	74,8	105,0
Shahrisabz sh.	15,9	121,9
tumanlar:		
G'uzor	51,8	104,6
Dehqonobod	30,1	106,2
Qamashi	60,1	106,0
Qarshi	-	-
Koson	79,6	104,1
Kitob	49,9	104,1
Mirishkor	12,5	107,5
Muborak	46,9	108,3
Nishon	34,1	105,0
Kasbi	21,5	108,5
Ko'kdala	71,3	103,4
Chiroqchi	164,5	106,5
Shahrisabz	36,2	101,0
Yakkabog'	32,7	106,6


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-avgust)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-avgust)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1925,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 109,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 781,9 mlrd. so'mni (105,3 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1144,0 mlrd so'mni tashkil etdi (113,3 %).













2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 781,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (424,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>424,6 mlrd. so'm</b>  <b>54,3 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>123,5 mlrd. so'm</b>  <b>15,8 %</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>36,0 mlrd. so'm</b>  <b>4,6 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>54,0 mlrd. so'm</b>  <b>6,9 %</b>	<b>Qurtilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>21,9 mlrd. so'm</b>  <b>2,8 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>21,1 mlrd. so'm</b>  <b>2,7 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>38,3 mlrd. so'm</b>  <b>4,9 %</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>22,7 mlrd. so'm</b>  <b>2,9 %</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>7,8 mlrd. so'm</b>  <b>1,0 %</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>15,6 mlrd. so'm</b>  <b>2,0 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>2,3 mlrd. so'm</b>  <b>0,3 %</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>14,1 mlrd. so'm</b> <b>1,8 %</b>

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1144,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 787,0 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 222,0 mlrd. so'mni, otlar – 45,8 mlrd. so'mni, parrandalar – 5,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>504,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>44,1 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>219,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>19,2 %</p>	<p><b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>62,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,5 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>176,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>15,4 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>45,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,0 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>129,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>11,3 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>1,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>4,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,4 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,0 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,0 %</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- sentyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 992 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 990 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>392,4</b>	<b>108,5</b>
Qarshi sh.	39,3	103,5
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	11,2	127,6
G'uzor	7,8	94,6
Dehqonobod	20,4	97,2
Qamashi	14,0	114,6
Qarshi	20,7	112,2
Koson	8,7	105,9
Kitob	29,0	103,8
Mirishkor	36,1	107,9
Muborak	17,5	182,7
Nishon	7,8	107,0
Kasbi	8,5	95,6
Ko'kdala	12,5	107,8
Chiroqchi	16,5	103,8
Shahrisabz	114,0	109,1
Yakkabog'	28,4	102,6

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 392,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>2332,1</b>	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	2009,9	86,2
Shahrisabz sh.	7,8	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2,8	0,1
Dehqonobod	4,0	0,2
Qamashi	1,2	0,1
Qarshi	198,4	8,5
Koson	9,8	0,4
Kitob	17,3	0,7
Mirishkor	6,7	0,3
Muborak	6,8	0,3
Nishon	10,2	0,4
Kasbi	18,9	0,8
Ko'kdala	2,2	0,1
Chiroqchi	19,6	0,8
Shahrisabz	0,5	0,1
Yakkabog'	15,8	0,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (2009,9 mlrd. so'm), Qarshi (198,4 mlrd. so'm) Chiroqchi (19,6 mlrd. so'm), Kasbi (18,9 mlrd. so'm), Kitob (17,3 mlrd. so'm), Yakkabog' (15,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024- yilning yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2332,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,5 foizga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1272,0 mlrd. so'm (o'sish sur'ati 130,6 foizga ko'paydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 1060,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 87,2 %) tashkil qildi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda






**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4064,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda 4064,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,2 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- sentyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2224 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 221 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Qamashi (142,6 %) tumani, Shahrisabz shahri (118,1 %), Yakkabog‘ (113,6 %), Dehqonobod (111,7,0%) va Qarshi shahrida (113,5 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>4064,8</b>	<b>107,0</b>
Qarshi sh.	296,1	113,5
Shahrisabz sh.	22,7	118,1
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	158,9	109,0
Dehqonobod	326,3	111,7
Qamashi	290,0	142,6
Qarshi	246,1	89,9
Koson	91,8	86,2
Kitob	67,3	104,2
Mirishkor	40,5	102,9
Muborak	14,2	93,5
Nishon	8,5	104,3
Kasbi	151,2	71,2
Ko‘kdala	69,7	108,7
Chiroqchi	166,5	105,4
Shahrisabz	1693,2	108,3
Yakkabog‘	421,8	113,6